IBN JINNIYNING «SIRRU SINOATI-L-E'ROB» ASARI FONETIK TADQIQOT SIFATIDA

Sirojiddin BOBOXONOV
Diplomat University, Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Sirojiddin SOTVOLDIYEV, Diplomat University, Filologiya va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. *Maqolada Ibn Jinniyning "Sirru sinoati-l-e'rob" asaridagi fonetik tahlil tamoyillari o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi asarning tovush hosil bo'lishi, hamza va alifning farqlanishi hamda nutq a'zolariga ko'ra tasniflash masalalaridagi ilmiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Sifatga asoslangan matniy tahlil va tarixiy-kontekstual yondashuv yordamida asarning nazariy kirishi hamda arab harflarining nomlari, tartibi va maxrajlariga bag'ishlangan bo'limlari tekshirildi. Uning 29 asosiy harf va 16 maxraj haqidagi qarashlari tarixiy tasnif doirasida izohlandi.*

Kalit so'zlar: *Ibn Jinniy; Sirru sinoat-l-e'rob; arab fonetikasi; maxraj; hamza; alif; artikulyatsion tahlil.*

Аннотация. *В статье рассматриваются принципы фонетического анализа в труде Ибн Джинни «Сирру сина'ати-ль-и'раб». Цель исследования — выявить особенности научного подхода автора к образованию звуков, разграничению хамзы и алифа, а также классификации звуков по органам речи. С помощью качественного текстового анализа и историко-контекстуального подхода изучены теоретическое введение и разделы, посвящённые названиям, порядку и местам образования арабских звуков. Представления автора о 29 основных буквах и 16 местах образования звуков интерпретируются в рамках исторической классификации.*

Ключевые слова: *Ибн Джинни; «Сирру сина'ати-ль-и'раб»; арабская фонетика; место образования звука; хамза; алиф; артикуляционный анализ.*

Abstract. *This article examines the principles of phonetic analysis in Ibn Jinnī's Sirr ṣināʿat al-iʿrāb. The study aims to identify the distinctive features of the author's scholarly approach to sound production, the distinction between hamza and alif, and the classification of sounds according to the organs of speech. Using qualitative textual analysis and a historical-contextual approach, the study examines the theoretical introduction and the sections devoted to the names, ordering, and articulation points of Arabic letters. The author's account of 29 basic letters and 16 articulation points is interpreted within the framework of historical classification.*

Keywords: *Ibn Jinnī; Sirr ṣināʿat al-iʿrāb; Arabic phonetics; articulation point; hamza; alif; articulatory analysis.*

Arab tilshunosligi tarixida nutq tovushlarini o‘rganish grammatika, sarf va qiroat masalalari bilan bog‘liq holda rivojlangan. Shu an’ana doirasida Ibn Jinniyning “Sirru sinoatil-e’rob” asari alohida ahamiyatga ega. Kitob nomida e’rob atamasi mavjud bo‘lsa-da, uning tadqiqot doirasi so‘z oxirlarining grammatik o‘zgarishi bilan cheklanmaydi. Muallif asar dasturida harflarning maxrajlari, sifatlari, harakatlar bilan munosabati va o‘zaro almashishini o‘rganishni belgilaydi.[4]

Olimning to‘liq ismi Abu al-Fath Usmon ibn Jinniy al-Mavsiliydir. Ibn Xallikon uning Abu Ali al-Forsiydan ta’lim olganini va otasi Jinniy rumlik bo‘lganini qayd etadi. Demak, Abu al-Fath — kunyasi, al-Mavsiliy — Mavsildagi kelib chiqishini bildiruvchi nisbasi, Jinniy esa otasining ismidir. جِنِّي nomi jimning kasrasi va nunning tashdidi bilan talaffuz qilinadi. Fozil Solih as-Somarroiyning «Ibn Jinniy an-nahviy» asarida bu nomning rumiy-yunoniy kelib chiqishi hamda oliyjanoblik, saxovat va samimiylikni anglatuvchi so‘z bilan bog‘liqligi haqidagi talqin keltiriladi.[2] Ibn Jinniyning nasab va ilmiy mavqega munosabati unga nisbat berilgan quyidagi baytlarda ifodalangan:

فَإِنْ أُصْبِحْ بِلَا نَسَبٍ فَعِلْمِي فِي الْوَرَى نَسَبِي
عَلَى أَنِّي أَؤُولُ إِلَى قُرُومٍ سَادَةٍ نُجُبِ
قَيَاصِرَةٍ إِذَا نَطَقُوا أَرَمَّ الدَّهْرُ ذُو الْخُطَبِ
أُولَاكَ دَعَا النَّبِيُّ لَهُمْ كَفَى شَرَفًا دُعَاءُ نَبِيِّ

Mazmuni: Garchi nasabsiz qolsam ham, odamlar orasidagi ilmim mening nasabimdir. Shunday bo‘lsa-da, men oliyjanob, yetakchi va aslzoda kishilarga — ular so‘zlaganida hodisalarga boy zamon ham sukut saqlaydigan qaysarlarga borib taqalaman. Payg‘ambar ular uchun duo qilgan; payg‘ambarning duosi sharaf uchun kifoyadir.

Ibn Jinniy arab tilshunosligi tarixida nahv, sarf va nutq tovushlari haqidagi qarashlari bilan tanilgan olimlardan biridir. Uning til hodisalarini nazariy jihatdan izohlashga intilishi ilmiy adabiyotlarda «nahv faylasufi» sifatida tavsiflanishiga asos bo‘lgan. Unga ellikka yaqin asar nisbat beriladi. Ilmiy merosida «الخصائص» — «Xususiyatlar» va «سر صناعة الإعراب» — «E’rob san’ati siri» asarlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, olimning “Sirru sinoati-l-e’rob” asariining fonetik mazmuni avvalgi tadqiqotlarda ham muhokama qilingan. Abdulqodir ibn Zayyonning maqolasi fonetik va fonologik masalalarni zamonaviy yondashuvlar bilan bog‘lab o‘rganishga bag‘ishlangan. Husayn Masif va Nuriddin Buznashaning tadqiqoti esa

[4] Ibn Jinniy, Abu al-Fath Usmon. Sirru sinoati-l-e’rob / tahqiq qiluvchilar: Muhammad Hasan Muhammad Hasan Ismoil, Ahmad Rushdiy Shihota Omir. — 1-nashr. — Bayrut : Dor al-kutub al-ilmiyya, 2000. — J. 1. — B. 16–18.

hamzaning illat harflari o‘rnida kelishini izohlashdagi tarixiy va zamonaviy yondashuvlar farqiga e’tibor qaratadi.[5]

Ibn Jinniy tovushni nafas oqimi va bu oqimning halqum, og‘iz hamda lablar sohasida turlicha cheklanishi bilan bog‘lab tushuntiradi. Tovushlar farqini faqat harf nomlari orqali emas, nutq a’zolaridagi to‘siq va torayishlarning farqi orqali izohlashi uning yondashuvida artikulyatsion kuzatish muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Biroq matndagi “savt” va “harf” atamalarini hozirgi “tovush” va “fonema” tushunchalariga barcha o‘rinlarda bir xil nisbat berib bo‘lmaydi.[6]

Talaffuzni tekshirish uchun muallif undoshni harakatsiz holatda aytib ko‘rishni tavsiya etadi. Arab tilida sokin undosh bilan nutq boshlash imkoni bo‘lmagani uchun undan oldin kasrali boshlang‘ich hamza keltiriladi. Masalan, ك، ق، ج tovushlarini tekshirishda إِكْ، إِقْ، إِجْ kabi talaffuzlardan foydalanish mumkin. Bu yerda maqsad lug‘aviy ma’noli so‘z tuzish emas, undoshning hosil bo‘lish o‘rnini sezishdir. Harakatli va sokin talaffuzni farqlash tovushni kuzatish sharoitini belgilaydi.[7]

Ibn Jinniy og‘iz va halqum faoliyatini tushuntirishda nay hamda ud torini qiyos sifatida keltiradi. Naydagi teshiklarni navbat bilan yopish yoki torning turli qismini bosish ovozni o‘zgartirgani kabi, nutq a’zolarining turli holati ham tovush sifatiga ta’sir qiladi.[8]

Hamza va alifni ajratish hamda 29 harf masalasi

Asarda asosiy mu’jam harflari 29 ta deb olinadi. Abu al-Abbos al-Mubarradning 28 harf haqidagi qarashiga munosabat bildirilar ekan, harfning talaffuzdagi mavjudligi bilan yozuvdagi shaklining barqarorligi bir masala emasligi yuzaga chiqadi. Ibn Jinniy alifbo boshidagi alifni hamzaning yozuv shakli sifatida izohlaydi. Shuning uchun bu bahsni faqat ikki xil sonning to‘qnashuvi sifatida emas, hisob birligi va yozuv mezonining muhokamasi sifatida tushunish kerak.[9]

Hamzaning ba’zan alif, vov yoki yo shakli bilan yozilishi haqidagi izoh tovushning o‘zi bilan uni ifodalovchi grafik vositani farqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, muallifning yozuvga oid dalillarini bugungi imlo qoidalari bilan aynanlashtirmaslik lozim. U keltirgan misollar o‘z davridagi yozuv va taxfif an’anasi doirasida talqin qilinadi. Ibn Jinniy fonetik tartibni bayon qilgach, harflarni

---

[5] Ibn Zayyon, Abdulqodir. // البحث الصوتي عند ابن جني دراسة صوتية في مقدمة سر صناعة الإعراب في ضوء الدرس الصوتي الحديث. دراسات وأبحاث. — 2020 — J. 12, № 2. — B. 441–450. — URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/114119 (murojaat sanasi: 24.10.2026); Masif, Husayn; Buznasha, Nuriddin. إبدال الهمزة من حروف العلّة عند ابن جنّي في كتابه «سرّ صناعة الإعراب»: دراسة صوتية معاصرة // مجلة جامعة الأمير عبد القادر للعلوم الإسلامية. — 2021 — J. 34, № 3. — B. 694–730. — URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/147538 (murojaat sanasi: 24.10.2026).

[6] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 19.

[7] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 19–20.

[8] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 21–22.

[9] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 55.

keyingi boblarda odatiy alifbo tartibida tekshirishini bildiradi. Bu muhim farqdir: asarning boblar tartibi bilan uning tovushlarni tasniflash tartibi bir xil emas. Muallif talaffuzni yozuvning asosi sifatida ko‘rishi orqali fonetik tavsifni grafik tartibdan ajratadi.[10]

Harflar halqumning ichki qismidan lablar tomon yo‘nalgan tartibda tasvirlanadi. OLimning tasnifida ق harfi ك harfidan oldin keladi. Ibn Jinniy bu tartibni Sibavayhga bog‘lab, “Kitabu-l-ayn”dagi tartibni qayta ko‘rib chiqish kerakligini ta’kidlaydi.[11]

T/r	Tarixiy tavsifdagi maxraj	Harf yoki talaffuz turi
1	Halqum tubi	ء، ا، ه
2	Halqum o‘rtasi	ع، ح
3	Halqumning og‘izga yaqin qismi	غ، خ
4	Tilning eng orqa qismi	ق
5	Qofdan oldinroqda joylashgan qism	ك
6	Til o‘rtasi va yuqori tanglay	ج، ش، ي
7	Til yon cheti va oziq tishlar sohasi	ض
8	Til chetidan uchigacha, yuqori tanglayga qarshi soha	ل
9	Til uchi va yuqori old tishlar usti	ن
10	Nun maxrajiga yaqin, lom tomon og‘gan soha	ر
11	Til uchi va old tishlar ildizlari	ط، د، ت
12	Til uchi va old tishlar oralig‘i	ص، ز، س
13	Til uchi va old tishlar chetlari	ظ، ذ، ث
14	Pastki lab ichi va yuqori old tishlar cheti	ف
15	Ikki lab oralig‘i	ب، م، و
16	Burun bo‘shlig‘i	النون الخفية

Tasnifdagi 16 ta maxraj 29 ta harf bilan bir hisob birligi emas: bitta maxrajga bir necha harf biriktiriladi. Burun bo‘shlig‘ini tekshirishda muallif burunni berkitib nun talaffuzini kuzatishni taklif qiladi.[12]

Harakatlar va talaffuz variantlari

Harakatlarning cho‘ziq unlilar bilan munosabati olimning “harakatlar madd va lin harflarining qismlaridir” degan qarashida ifodalanadi. Fatha alif, kasra yo, damma esa vov bilan bog‘lanadi. Bu izoh qisqa va cho‘ziq unlilar munosabatini tushunishga xizmat qiladi.[13]

Asarda 29 asosiy harfdan tashqari oltita ma’qul ko‘rilgan va sakkizta ma’qul ko‘rilmagan hosila talaffuz ham ajratiladi. Natijada kelib chiqqan 35 va 43 sonlari shu qo‘shimcha variantlarni qo‘shish natijasidir. Muallif ushbu talaffuzlarni to‘liq

[10] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 58.
[11] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 59.
[12] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 61.
[13] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 33.

anglash uchun eshitish va bevosita og‘zaki o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bu qayd yozuvning talaffuzdagi barcha farqlarni bir o‘zi yetkazib berish imkoniyati cheklanganini ko‘rsatadi.[14]

Muxtasar aytganda, asarning fonetik tadqiqot sifatidagi xususiyati uch yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchidan, muallif tovushlar farqini nutq a’zolarining holati bilan tushuntiradi. Ikkinchidan, sokin undoshni talaffuz qilish va burun yo‘lini vaqtincha berkitish kabi kuzatish sharoitlarini bayon etadi. Uchinchidan, yozuvdagi tartib, tovushlarning artikulyatsion tartibi va talaffuz variantlarini o‘zaro ajratadi. Shu bilan birga, tarixiy terminlarni zamonaviy tushunchalar bilan tenglashtirishda chegaralar mavjud. Muallifning ma’qul va noma’qul talaffuz haqidagi baholari ham tarixiy adabiy til hamda qiroat me’yorlari bilan bog‘liq. Ularni bugungi shevalar yoki shu shevalarda so‘zlashuvchilarning til qobiliyatiga berilgan baho sifatida takrorlash to‘g‘ri emas. Demak, “Sirru sinoati-l-e’rob” asarida Ibn Jinniy tovushni kuzatish uchun muayyan talaffuz sharoitini belgilaydi, natijalarni o‘zaro qiyoslaydi va ularni tasnif bilan bog‘laydi. 29 asosiy harf haqidagi qarash yozuv shakli va talaffuz birligi farqini, 16 maxraj esa tarixiy artikulyatsion tasnifni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Jinniy, Abu al-Fath Usmon. Sirr ṣināʿat al-iʿrāb [سر صناعة الإعراب] 2 : jildlik / tahqiq qiluvchilar: Muhammad Hasan Muhammad Hasan Ismoil, Ahmad Rushdiy Shihota Omir. — Bayrut : Dor al-kutub al-ilmiyya, 2000.
2. Ibn Xallikon. Wafayāt al-aʿyān wa-anbāʾ abnāʾ al-zamān [وفيات الأعيان وأنباء أبناء الزمان] / tahqiq qiluvchi: Ihson Abbos. — Bayrut : Dor al-fikr, [n. y.]. — J. 3. — URL: https://ablibrary.net/book_content/b/18391/246?lang=ar (murojaat sanasi: 24.10.2026).
3. Sotvoldiev S. AUTOANTONYMY AND ENANTIOSEMY: A COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF OPPOSITIONAL MEANINGS IN LANGUAGE //American Journal of Philological Sciences. – 2024. – T. 4. – №. 12. – C. 125-129.
4. Ibn Zayyon, Abdulqodir. البحث الصوتي عند ابن جني دراسة صوتية في مقدمة سر صناعة الإعراب في ضوء الدرس الصوتي الحديث // دراسات وأبحاث. — 2020 — J. 12, № 2. — B. 441–450. — URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/114119 (murojaat sanasi: 24.10.2026).
5. Masif, Husayn; Buznasha, Nuriddin. إبدال الهمزة من حروف العلّة عند ابن جنّي في كتابه «سرّ صناعة الإعراب»: دراسة صوتية معاصرة // مجلة جامعة الأمير عبد القادر للعلوم الإسلامية. 2021 —. — J. 34, № 3. — B. 694–730. — URL: https://asjp.cerist.dz/en/article/147538 (murojaat sanasi: 24.10.2026).

[14] Ibn Jinniy. Sirru sinoati-l-e’rob. — J. 1. — B. 59, 66.

6. Sotvoldiyev S. SEMANTIC DISAMBIGUATION OF ENANTIOSEMIC LEXEMES IN CLASSICAL ARABIC: EVIDENCE FROM CLASSICAL LEXICOGRAPHY AND QUR'ANIC DISCOURSE //BG pulse journal. – 2026. – T. 2. – №. 07. – C. 123-131.

7. International Phonetic Association. The International Phonetic Alphabet and the IPA Chart [Elektron resurs]. — URL: https://www.internationalphoneticassociation.org/content/ipa-chart (murojaat sanasi: 24.10.2026).

8. Sotvoldiev S. AL-AḌDĀD IN THE QUR'AN: A CORPUS-BASED ANALYSIS OF LEXICAL CONTRONYMY AND ITS IMPACT ON CLASSICAL TAFSIR TRADITIONS //Arabian journal of science. – 2026. – T. 13. – №. 6. – C. 2193-2195.